

Date: 23rd May-2026

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT BOSQICHIDA INSON VA
FUQARONING SUD HIMOYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

G‘ulomov Mirjalol Baxtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Tezida Yangi O‘zbekistonda sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan konstitutsiyaviy va institutsional islohotlar tahlil qilingan. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida sud himoyasi kafolatlarining kengayishi, asosiy qonun normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, “xabeas korpus” institutining takomillashuvi hamda “Miranda qoidasi”ning joriy etilishi huquqiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ma‘muriy yustitsiya tizimini rivojlantirish, “sudning faol ishtiroki” tamoyili hamda 2025-yildan joriy etilgan tergov sudyasi institutining inson huquqlarini ta‘minlashdagi roli baholangan. Bundan tashqari, sud tizimini raqamlashtirish, sud majlislarida sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari hamda advokatura institutining protsessual imkoniyatlarini kengaytirish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqot yakunida sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish Yangi O‘zbekistonda inson qadri va qonun ustuvorligini ta‘minlashning asosiy omili ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, sud himoyasi, inson huquqlari, odil sudlov, sud hokimiyati, ma‘muriy yustitsiya, tergov sudyasi, xabeas korpus, miranda qoidasi, sud nazorati, advokatura, tortishuv tamoyili, raqamli sud, sun‘iy intellekt, sud-huquq islohotlari.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng oliy maqsadi — "Inson qadri uchun" tamoyilini davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida real namoyon etishdir. Ushbu maqsadning bosh kafolati esa mustaqil, adolatli va faqat qonunga bo‘ysunadigan sud hokimiyatini shakllantirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi qat’iy belgilab qo‘yilishi sud himoyasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi.

1. Konstitutsiyaviy islohotlar va sud himoyasining yangi institutsional bosqichi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi inson huquqlari sud himoyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi:

- Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi: Oliy sud Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-sonli qarori bilan sudlar tomonidan ishlarni ko‘rishda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash majburiyati yuklandi. Bu qonunosti hujjatlaridagi ziddiyatlarni inson manfaati foydasiga hal etish imkonini bermogda.

- "Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi": Shaxs erkinligini cheklovchi barcha protsessual harakatlarning (tintuv, uyni ko‘zdan kechirish, aloqa vositalarini xatlash) faqat sud sanksiyasi orqali amalga oshirilishi, shuningdek, ushlangan shaxsga uning sukut



Date: 23rd May-2026

saqlash va himoyalash huquqi tushunarli tilda tushuntirilishi xalqaro miqyosdagi demokratik andozalarning milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilinganini ko'rsatadi.

2. Ma'muriy yustitsiya va "Sudning faol ishtiroki" tamoyili

Fuqaro va davlat munosabatlarida qonun ustuvorligini ta'minlashda ma'muriy sudlar islohoti markaziy o'rin egallaydi. Davlat organlarining qarorlari ustidan sud nazoratini kuchaytirish maqsadida an'anaviy fuqarolik protsessidan farqli o'laroq "Sudning faol ishtiroki" tamoyili joriy etildi. Unga ko'ra, ma'muriy sudlar ishning haqiqiy holatini aniqlash uchun o'z tashabbusi bilan dalillar yig'ishga haqli va majburdir. Shuningdek, fuqarolarga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni ma'muriy nizo bilan bir vaqtda bitta sudda ko'rib chiqish mexanizmi aholining sarsongarchiligini keskin kamaytirdi.

3. "Tergov sudyasi" instituti — Inson huquqlari himoyasining muhim kafolati

Sudga qadar bosqichda inson huquqlari buzilishining oldini olish borasidagi eng inqilobiy qadam — bu 2025-yil 1-yanvardan boshlab jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda alohida tergov sudyasi lavozimining joriy etilishidir. Tergov sudyasi:

- Ishni mazmunan ko'rmasdan, faqatgina tergov ustidan mustaqil sud nazoratini amalga oshiradi;
- Qamoqqa olish, uyni tintuv qilish, mol-mulkni xatlash kabi sanksiyalarni xolis baholaydi va asossiz jinoiy ta'qib hamda shaxsiy daxlsizlikning buzilishiga to'g'anoq bo'ladi.

4. "Raqamli sud" va advokatura institutining kuchaytirilishi

Zamonaviy odil sudlovni raqamlashtirish jarayonlari sud ma'lumotlarining shaffofligi hamda masofaviy videokonferensaloqa orqali fuqarolarning vaqt va mablag'ini tejashga xizmat qilmoqda. Istiqbolda sud amaliyotini unifikatsiya qilish (bir xillashtirish) uchun sun'iy intellekt elementlarini joriy etish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, sud taraflar tortishuvi va tengligi tamoyilini real ta'minlash uchun advokatlarining protsessual imkoniyatlari (mustaqil ekspertiza tayinlash, dalillar to'plash xizmati) kengaytirildi va advokatlik faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistondagi sud-huquq islohotlari sud tizimini o'tmishdagi jazolash va repressiv organ mafkurasidan voz kechtirib, uni chinakam inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi "adolat qo'rg'oni"ga aylantirmoqda. Kelgusi taraqqiyot bosqichida sudlarning to'liq moliyaviy mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligini iqtisodiy-huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash davlatimizning huquqiy maqomini xalqaro reytinglarda yuksaltirishning bosh omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekistonda Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi PF-89-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ-1022-sonli Qonuni (Tergov sudyasi faoliyatiga oid).



Date: 23rd May-2026

4. Oliy sud Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-sonli “Sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash to‘g‘risida”gi qarori.

